

“QIZILTEPA BUYUK IPAK YO’LIDAGI QADIMIY DIYOR ” NOMLI MAQOLA MATNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19325226>

Azimjon Nurmuhammadiyev Vafqulovich

Navoiy viloyati davlat tarix va madaniyat muzeyi

Viloyat davlat tarix va madaniyat muzeyifiliali

Qiziltepa tuman O'lkashunoslik muzey boshqaruvchisi

+998 91-337-48-69

O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Navoiy viloyati tarkibidagi Qiziltepa tumani o'zining boy tarixi, qadimiy madaniyati va muhim geografik o'rni bilan ajralib turadi. Qiziltepa Zarafshon vohasi tarixining ajralmas qismidir. Eftalitlar hukumronligi davridagi muhim tarixiy voqealardan biri Buyuk ipak yo'lining Buxoro-Samarqand yo'nalishining shakillanishidir. Keyinchalik "Shoxroh"- "Osh yo'l" deb nomlangan bu yo'nalishda So'g'd davlati o'rta asrlarda Yuksak taraqqiyotga erishadi.

Buyuk Ipak yo'li haqida – qadimda sharq bilan g'arbni bo'g'lab turgan savdo yo'li, insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lgan hodisasi. Dengiz, okean yo'llari ochilmasdan oldin bu yo'llar muhim ahamiyat kasb etgan. Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lab, o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi. Albatta, sharq va G'arb o'rtasidagi savdo o'tmish qa'riga cho'kkan qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan. Buyuk ipak yo'lining Qiziltepa hududidagi qadimiy Tavovis shahri IX-X asrlarda vohaning eng mashhur taraqqiy etgan shahri sifatida taniladi. O'rta asrlarda mudofaa maqsadlaridagi "Kampirak" devorining qurulishi aynan shu hududga to'g'ri keladi. Narshaxiyning yozib qoldirgan ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki dastlab Tavoisning nomi "Arqud" bo'lgan. Melodiy I- asr boshlarida bu yerda Zardushtiylarining muqaddas otashkadasi va otashgoh bo'lgan. Ma'lumki otashkada Zardushtiylik dini ibodatxonasi hisoblanib u dastlab diniy marosim ibodatlarini bajarish maskani bo'lgan keyinchalik vazifasi o'zgarib jamoa yig'illari o'tkaziladigan joyga aylangan. Xullas Tavoisda joylashgan otashkada yuz yillar davomida mavjud bo'lgan. Abu Jafar at -Tabariyning "Tarixi tabariy" asarida

Tavois nomi Abumuslim harakatida ham tilga olingan. Saljuriylar sultoni Malikshoh I ning Movaraunnahrga yurishi jarayonida Tavois nomi yana tilga olinadi. Bu hudud Buxoro va Samarqand o'rtasidagi shahar va qishliqlarda alohida nufuzga sazovvor bo'lganini anglatadi. Tavois qishlog'ining mavqeyi Saljuqiylar va Qoraxoniylar davrida (XI-XII asrlar) ham mashhur bo'lgan. Tavois tavsifi keltirilgan tarixiy va geografik manbalar orasida "Kitobi xudud al olam minal mashriq ilal mag'rib" (yani olam chegaralari) nomli tarixiy geografik asar muhim o'rin tutadi. Unda Tavois haqida shunday yozilgan: "Tavois-Buxoroga qarashli shaharcha, Sug'd sarhadida, unda har yili bir kun bozor bo'ladi va ko'p xalq yig'iladi" deb yozilgan. Bu hudud qadimdan Buyuk ipak yo'li yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlangan bo'lib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy almashinuv markazlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Beruniyning Xorazmga oid fikri Sug'diyona hududida jumladan Arqot yani Tavoisga ham tegishli davrda ham Tavois viloyati maqomida bo'lgan vohamizdagi Arabxona Arablar va shu mazmundagi qishloqlar nomidan dalolat beradiki qirib tashlangan mahalliy aholi o'rniga arablar va forslar ko'chirib keltirilib o'rnashtirilgan sharqshunos Bartoldning fikricha fors va arablarning o'zaro asimiliatsiyasi natijasida Buxoro va samarqanddagi tojik xalqining bir qismi vujudga kelgan shuningdek XI-X asrlarda tojik xalqidan sal oldin vujudga kelgan O'zbek xalqi etnagenezisida esa asosiy rolni turkiy xalqi bajargan Zarafshon vohasi O'zbek xalqi shakllanishida asosiy rol o'ynagan.

Qiziltepa hududidan o'tgan Ipak yo'li yoqasida joylashgan yanab bir yodgorlik bu Qiziltepa yodgorligidir. **Yodgorlik** Yakubovski rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan o'rganilib tuman markazining shimoliy chekkasida joylashganligi aniqlangan yodgorlik qadimda katta savdo hamda harbiy strategik ahamiyatga ega qal'a shahar sifatida faoliyat ko'rsatgan u milodiy IV-V asrlar bilan davrlanadi taxminlarga ko'ra yodgorlikda hayot to'xtagandan so'ng uning aholisi hozirgi Navgandi qishlog'iga ko'chgan Yakubuskiy tafsilotlariga qaraganda yodgorlikka janub tomonidan Kampirak devor yaqinlashib kelgan va uning bitta darvozasi shu yerda bo'lgan u yerdan to'rtinchi beshinchi asrlarga oid sopol idishlar, idish parchalari topilgan Kampirak devorining IV asrda bunyod etilganligini e'tiborga olgan bo'lsak uning Abu Muslimtepa, Oqsochtepada doirasida katta savdo strategik ahamiyatga ega bo'lgan va markaz sifatida faoliyat ko'rsatganni aniq bo'ladi. Bosqin davrida Badaviylar bu yerdagi shaharsozlik madaniyatining o'ta rivojlanganligini ko'rib hayratda qolgan bo'lsalar 1878-yili temir yil qurish rejasini tuzgan ruslar ham Qiziltepani e'tibordan chetda qoldirmaydilar chunki bu hududda tashib keltiradigan yer usti va yer osti

boyliklari ko'p bo'lgan Qiziltepa hozirgi G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Konimex, Navbahor tumanlarni temir yo'l bilan bog'lash mumkin edi. U vaqtlarda temir yo'l poyezdlari paravozlar yordamida harakatga keltirilgan. Qiziltepa temir yo'l stansiyasiga Zarafshon daryosining eng yaqin masofadan suv keltirish mumkin bo'lgan, shuning uchun Qiziltepa stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan 1888- yilda amalga oshirilgan. Tuman hududidan qadimgi davr va ilk o'rta asrlardan boshlab buyuk ipak yo'lining markaziy shahobchalari o'tgan Qiziltepa manzil Buxoro bilan Karmana shaharlarning qoq o'rtasida joylashgan tarixiy makon hisoblanadi, Arablar bosqini boshlangunga qadar bu joyda o'zbek xalqining milliy madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini birgina Narshaxiyning mashhur "Buxoro tarixi" asari orqali ham bilib olish mumkin ayniqsa Tavoyi viloyati hozirgi Qiziltepa tuman hududi to'g'risida nodir ma'lumotlar bor. Tavois boy madaniy tarixga ega bo'lgan qishloqlardan bo'lib, unda jahon bozori tashkil qilinganligi har bir uyda tovuqlar saqlanganligi to'g'risida fikrlar yuritiladi. Arxeologiklar tomonidan Sug'diyonaning dastlabki shaharlaridan biri Bo'ston ekanligi, Demas qal'asi hududida eramizgacha jahon bozori o'tganligi ham isbotlangan. Qiziltepa tumani hududi qadim zamonlardan boshlab turli sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan. Buyuk ipak yo'li orqali Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasida nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, madaniyat va urf-odatlar ham almashilgan. Shu sababli bu hududda turli xalqlarning ta'siri sezilib, boy madaniy meros shakllangan. Tumanning tabiiy sharoiti ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Qiziltepa atrofidagi yerlar dehqonchilik uchun qulay bo'lib, qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Bu esa savdo yo'llarida muhim oziq-ovqat manbai sifatida hududning ahamiyatini oshirgan. Bugungi kunda Qiziltepa tumani o'zining tarixiy ildizlarini saqlagan holda zamonaviy taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va kichik biznes rivojlanib, hudud aholisi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tarixiy obidalar va qadimiy an'analar yosh avlodga meros sifatida yetkazilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Qiziltepa tumani — bu nafaqat oddiy ma'muriy hudud, balki Buyuk ipak yo'lining tirik guvohi, o'zida asrlar davomida shakllangan boy tarix va madaniyatni mujassam etgan qadimiy diyardir. Bu yerning har bir qarichi o'tmish nafasini eslatib, kelajak sari dadil qadam tashlayotgan zamonaviy hayotni aks ettiradi.